

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Surxondaryo viloyati Denov tumani Denov tadbirkorlar va pedagogika institutining Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodika yan boshlang'ich ta'lim yo'nalishi magistranti Eshmamatova Madina Abdurashidovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlanirishda interfaol metodlardan foydalanishning o`ziga xosliklari, usullari va interfaol metodlar, yangicha dars tashkil etishning ketma-ketliklari yoritilgan bo`lib, aynan ta`lim jarayoniga tatbiq etishda o`ziga xosliklari ochib berilgan.

Kalit so`zlar: pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar, shakl, metod, vositalar, aqliy xujum, tarmoqlar, sinkveyn, zigzag, kichik guruhlarda ishlash, bahs munozara, fsmu, yumaloqlangan qor, akt, zamonaviy metodlar, zamonaviy dars shakli, internet, elektron pochta.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ.

Аннотация: В данной статье освещаются особенности использования интерактивных методов в развитии творческого мышления учащихся младших классов, способы и последовательность применения интерактивных методов, новые методы организации урока, а также раскрываются особенности их применения в образовательном процессе.

Ключевые слова: педагогические технологии, интерактивные методы, форма, метод, инструменты, мозговой штурм, сети, синквэй, зигзаг, работа в малых группах, дебаты, ФСМУ, округлый снег, акт, современные методы, современная форма урока, Интернет, электронная почта.

USE OF INTERACTIVE METHODS IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract: In this article, the peculiarities of using interactive methods in the development of creative thinking of elementary school students, the methods and sequences of interactive methods, new lesson organization are highlighted, and the peculiarities of their application to the educational process are revealed.

Key words: pedagogical technologies, interactive methods, form, method, tools, brainstorming, networks, syncway, zigzag, work in small groups, debate, fsmu, rounded snow, act, modern methods, modern lesson form, internet, electronic mail.

Kirish

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsnинг taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Ayni vaqtida Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish —Raqamli O'zbekiston — 2030 strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanad. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishslash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs munozarada fikrlash asnosida, hamjixatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri yechimini topishlariga ijobjiy ta'sir

ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi. Yuqorida aytilganlardan interfaol ta'lismetodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma'lum bo'ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiylulohazalarni keltirib o'tamiz. Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta'lismetodiyalar, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin. Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lismetodlari quyidagilar sanaladi ⚫ Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lism" va b. ⚫ Interfaol ta'lismetodiyalar: "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor" va boshqalar. Interfaol ta'lismetodlari tarkibidan interfaol ta'lismetodiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategic yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lismetodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q. ⚫ Interfaol grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konsteptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va boshqalar. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi.

Tahlil va natijalar.

Bugunning dolzarb muammolaridan biri ta'lismetodlari tizimi sifatini yaxshilash va o'quvchilarga sifatli ta'lismetodlari berish. Buning uchun pedogoglardan interfaol metodlardan unumli foydalanish, to'g'ri tanlov va o'quvchilarda qiziqish uyg'otish talab etiladi. Shu bilan birga pedagog ko'proq o'z ustida ishlashi, yangi interfaol metodlarni izlab topishi asosiy masalalardan biri bo'lib xisoblanadi. Hozirgi vaqtida ta'lismetodlari qo'llanilmoqda. O'qitishning zamонавиy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir mashg'ulotning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy mashg'ulot shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lismetodlari oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lismetodlari oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lismetodlari jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamонавиy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lismetodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagilari tahlil muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lismetodlari turlari ko'p bo'lib, ta'lismetodlari jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda

ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun mashg'ulot jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideniye, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida ta'lim jarayonida turli axborot vositalaridan o'rinci va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'quvchilar e'tiboriga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- o'quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi;
- o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O'quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi. Masalan, «Elektr jihozlari» (1-sinf), «Yil fasllari» (2-sinf) kabilar asosida o'quvchilarga milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, iqtisodiy munosabatlar haqida tushunchalar beriladi. Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi. Bizningcha, ta'limiy o'yinlarga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat: 1. Ta'limiy o'yinlar o'quvchilar yoshiga mos bo'lishi kerak;

2. O'yinlar o'tilayotgan mavzu mazmun-mohiyatiga mutanosib bo'lishi lozim;
3. Ta'limiy o'yinlarni o'tkazish vaqtini aniq belgilanishi shart;
4. Ta'limiy o'yinlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak;
5. Ta'limiy o'yinlarning o'tkazilish maqsadi, ahamiyati belgilanishi lozim.

Yuqoridaq talablarga amal qilingandagina dars samaradorligi ortadi va

zamonaviy texnologiyalar ta'lif samaradorligiga xizmat qiladi. Barcha o'quv fanlarida test topshiriqlaridan foydalanish zarur. Testlardan dastlab faqat bosma ko'rinishidagisidan foydalangan bo'lsak, hozirda ularni kompyuterda terib, har bir o'quvchi bilan shug'ullanish mumkin. AKTdan foydalanish yillari davomida 1-sinfdan 3- sinfgacha matematika, badiiy o'qish, ona tili, deyarli barcha mavzulari va boshqa o'quv fanlari bo'yicha qator turli testlarni tayyorlash mumkin. Endi darslarda faqat bosma shakldagi emas, balki kompyuterli testlardan foydalanish zarur. Ular bajarib bo'lishi bilan darhol bahosini olishga imkon beradi, bahoni kompyutering o'zi taqdim etadi, u yoki bu mavzu bo'yicha kamchiliklarini aniqlashlariga imkon beradi. «Tabiatshunoslik» fani bo'yicha barcha mavzulari bo'yicha kompyuter testlarini ishlab chiqish mumkin. Masalan: «O'lkamiz suv havzalari», «Ona zamin», «O'rmon va dalalar — tabiat boyligi», «Qishloq xo'jaligi sohalari», «Bizning o'lka», «Yer osti boyliklari», «O'lkamiz hududiy tuzilishi», «O'lka chorvachiligi va o'simliklari» va boshqalar. Ona tili bo'yicha o'rganiladigan so'z leksik mazmunini talqin qilishda va birliklarni turlarga ajratishda o'quvchilarda qiyinchiliklar tug'diradi. Bular: antonimlar, sinonimlar, omonimlar. Testlar orqali o'quvchilarning leksik imkoniyatlari rivojlanadi, so'zning to'g'ri va ko'chma ma'nosini topishga, sinonimlarni to'g'ri tanlashga, sinonimlar, antonimlar va omonimlarni farq qilishga o'rgatadi. Antonimlar bilan ishlashga bag'ishlangan «Teskari o'yin» testidan foydalanish o'quvchilarga darsni tushuntirishga samarali ta'sir etadi. Asosiysi: test topshiriqlarini bajarishda o'quvchining ko'zi, miyasi va qo'llari ishtirok etadi, o'yin elementlari esa ularda bajarayotgan ishlariga qiziqishni rivojlantirishga va demak, ta'lif jarayoni jadalligi kerakli darajasini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Testlardan tashqari krossvordlar, sxemalar, jadvallardan foydalaniladi, o'quvchilar dars materiallarni mustaqil o'rganishda bevosita kompyuterda ishlaydilar. Barcha o'quv fanlarida qo'shimcha va rivojlantirish materiallari sifatida ko'plab videofilm hamda fotolavhalar bilan o'lkashunoslik materialidan foydalanish mumkin. Microsoft Power Point dasturlari yordamida yaratilgan taqdimotlar ta'lif jarayonida AKT'dan foydalanish juda samarali shakli hisoblanadi. Taqdimotda asosiysi — axborotliligi, ko'rgazmaliligi, qiziquvchanligi hisoblanadi. Mazkur dastur orqali turli mavzu va fanlar bo'yicha taqdimotlar yaratishda fotosuratlar, rasmlar, animatsiya, qo'shimcha axborotlardan foydalanish mumkin. Maktabda mavjud bo'lgan . Internet — bu global axborot tizimi ekanligi barchaga ma'lum. U elektron pochta, izlash tizimlarini o'z ichiga oladi va turli axborot resurslaridan foydalanish imkonini beradi. Undan kerakli axborotlarni topish, qayta ishlab chiqish va ularni ko'paytirib, barcha kompyuterlarga o'rnatib bolalarga mustaqil juftlikda, guruhda, individual ishlashni taklif etish mumkin. O'quvchilarga turli xildagi topshiriqlarni taklif etish: tadqiqot o'tkazish, asosiysini tanlash, taqdimot tayyorlash, jadvalni to'ldirish imkonini paydo bo'ladi. Axborot olishning boshqa bir usuli — dars davomida bevosita Internetdan axborot olish

hisoblanadi. Internetdan avvaldan kerakli materialni topish, darsda esa uni o'quvchilarga ko'rsatish mumkin. Ishni o'rganilgan material bo'yicha dialog ko'rinishida olib borish mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari Internetdan mustaqil foydalanishni, kerakli axborotni tanlashni, uni saqlab qolish va taqdimotlar tuzish yoki turli xildagi loyihalarni ishlab chiqish va bajarishda keyingi ishlarida foydalanishni biladilar. 2-sinf danoq o'quvchilar faqat daftarda emas, balki bevosita kompyuterda ham topshiriq-larni bajara oladilar. O'quvchilar kompyuter bilan ishlash birinchi ko'nikmalarini oladilar, o'zlarining nazariy bilimlarini doimiy chuqurlashtirib va amaliy ko'nikmalarini takomillashtirib boradilar. Barcha o'quv fanlarida test topshiriqlaridan foydalanish zarur.

Muhokama Amalga oshirilayotgan ta`limiy islohotlar yagona maqsad-barkamol shaxs va malakali mutaxassislarini tarbiyalash hamda tayyorlashga yo`naltirigan bo`lib, mazkur maqsadning to`laqonli amalga oshirilishi ta`lim tizimini takomillashtirish, ta`lim jarayonida sifat o`zgarishlari va yuqori samaradorlikka erishish asosida ta`minlanadi."Ta`lim-tarbiyatagi sifat o`zgarishlari va yuqori samaradorlik mazkur sohada ijobjiy yangilik kiritish bilan belgilanadi.Bunday yangilikni kiritish innovatsion jarayon bo`lib , ilg`or pedagogik texnologiyalarni joriy qilib, ta`limda sifat va samaradorlikka erishuvdan iborat bo`ladi.

Interfaol ta`lim metodlarini ko'pincha turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo'llanmoqda. Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta`lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni tanlashning navbatdagi mezoni ularning ta`lim mazmuni xususiyatiga mos kelishdir. Metod mazmuni harakatlanish qismi sifatida ham aniqlanadi. Shu boisdan bu mezonning hisobga olinishi shubhasiz. Bir metod yordamida mavzu mazmuni to'laroq ochib berilsa, boshqasi uni ijobjiy o'zlashtirishga imkon tug'diradi. Interfaol metodlarning tanlashning yana bir mezoni ularning talabalar o'quv imkoniyatlariga to'liq mos kelishi, ya'ni samarali o'quv faoliyati uchun ichki va tashqi shart- sharoitlarining birligini ta'minlashdir. Interfaol o'qitish metodlaridan foydalanishda pedagogning xususiy imkoniyatlariga mos kelishi lozim. Bu pedagogning o'qitish metodlari nazariyasi va amaliyoti bilan o'qitsh jarayoning qonuniyatlar bilan bilish nazariyalarini ta`lim mazmuni nazariyasi va boshqa mavjud qonunlar bilan qurollanganlik darajasini hisobga oladi. Interfaol metodlarni tanlash mezonlaridan keyingisi-ularning o'quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan mos kelishidir. O'qitishning yalpi, guruhli va individual shakllari turlicha metodlarni talab etadi. Misol uchun debat metodi ikki talaba o'rtasidagi bahs hisoblansa, "aqliy hujumda" guruhdagi barcha talabalarning ishtiroki zarur bo'ladi. Interfaol metodlarning pedagogik texnologik prinsiplariga mos kelishi umumlashtiruvchi mezon hisoblanadi



Pedagogik innovatsion texnologiyalarning izchil ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklarni olib kirishga imkon berishi orqali ta'lim tizimi yoki jarayoni muntazam rivojlanib boradi. O'qituvchining motiv uyg'otuvchi faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a undovchi, bунyodkorlikka rag'batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi hamda u ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. Shu bois har bir o'qituvchi motivatsion faoliyat mohiyatini to'la tushungan holda o'z faoliyatiga izchil tatbiq eta olsa ta'lim jarayoni ham sifat, ham samaradorlik nuqtai nazardan taraqqiy etadi. Bu esa o'z navbatida ta'lim tizimining rivojini ta'minlaydi. Bugungi kun o'qituvchidan innovatsiyalardan yaxshi xabardorlikni, ularni dars jarayoniga tatbiq etishdagi kasbiy mahoratni taqazo etadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinflarda interfaol va zamonaviy metodlardan foydalanish o'quv jarayonini samarali tashkil etishning asosidir. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnalogiyalaridan foydalanish esa o'quvchilarni mustaqil fikrlashga ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlashni kengaytirish bilan birga ularni mdarslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lash hamda darsga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Zamonaviy ta'lim dasturlaridan xabardor bo'lish imkonini beradi. O'qituvchilarining bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalaniб, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnalogiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi. Multimedia texnalogiyalaridan foydalanish, ilovalarini har bir darsda qo'llash natijasida o'quvchilarda mustaqil, ijodiy fikrlash yanada rivojlanadi. Aytishimiz joizki interfaol va zamonaviy metodlar, axborot kommunikativ vositalarning boshlang'ich

sinf darslarida qo'llanilishi o'quvchilarda zamonaviy va kreativ fikrlashiga sabab bo'ladi va darsning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishganidan so`ng barcha jabhalarda bo`lgani kabi ta`lim va fan sohasida ham turli hildagi yangilanishlar olib borilmoqda. Davrlar o`zgaraveradi, unga mos ravishda taraqqiyot o`zanlari ham. Biroq insoniyat oldidagi asosiy missiya bo`lgan izlash-topish –qo'llash amaliyoti hech qachon eskirmaydi. Insonlar savollar ichida yashaydi, biriga javob topilishi bilan keyingisi ko`ndalang turadi. Albatta, yechimlar o`z-o`zidan kelinmaydi, buning uchun izlaniladi, kitoblar varaqlaniladi, ma`lumotlar to`planilib tahlil qilinadi. Bu esa butun bashariyat ilm fanga muhtojligini anglatadi. Chunki, savollardan iborat olamda yashab bo`lmaydi, qayerdadir ularga yechim topilishi shart. Hozirga qadar olimlar nafaqat yer sayyorasi, balki koinotdagi o`nlab jumboqlarga yechim topdi, sirli hodisalarning sabab va oqibatlarini tahlil qildi, tushuntirdi. Ammo mo`jizalardan iborat biz yashayotgan hayotda bilmaganlarimiz bilganlarimizdan ko`p.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi —Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi —O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida|| Farmoni.
3. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – T., Fan, 2012.
4. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T: Fan va texnologiya, 2008
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining —Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida|| 132- son qarori
6. B.X.Xodjayev. —Umumiyy pedagogika nazariyasi va amaliyoti|. —Sano-standart|| nashriyoti. Toshkent – 2017. 92-bet.
7. T.T.Omonov, N.X.Xo'jayev, S.A.Madyarov, E.U.Eshchonov. —Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratl|. Toshkent. —IQTISOD-MOLIYA|| 2009. 106-bet.